

O'ZBEK XALQI LINGVOKULTUROLOGIYASIDA NON KONSEPTI

Po'latova Zilola

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15106259>

Annotatsiya. *Xalqimiz juda ko'p yuksak insoniy xislatlarni non uzvli maqollar vositasida ulug' ne'matlarga ishora qilish, qiyoslash asnosida uqtiradi. Maqolada o'zbek tilida non uzvli maqollarning ko'pligi boshqa xalqlar qatori o'zbeklarda ham qadim-qadimdan nonni eng aziz, eng muqaddas, eng ulug', eng bebaho ne'mat sifatida qadrlanishi aytib o'tiladi. Non uzvli maqollarning lingvomadaniy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'z: Lingvokulturologiya, konsept, non uzvi, parema, qadriyat.

В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА КОНЦЕПТ ХЛЕБА

Аннотация. *Наш народ проявляет многие высокие человеческие качества, упоминая и сравнивая великие блага с помощью пословиц. В статье упоминается, что в узбекском языке существует множество пословиц о хлебе, и что узбеки, как и другие народы, издревле ценят хлеб как самое дорогое, самое священное, самое большое, самое бесценное благо. Особое внимание уделено лингвокультурным особенностям несвязных пословиц.*

Ключевое слово: Языковая культура, концепт, структура хлеба, парема, ценность.

THE CONCEPT OF BREAD IN THE LINGUISTIC AND CULTURAL STUDIES OF THE UZBEK PEOPLE

Abstract. *Our people show many high human qualities by referring to and comparing great blessings with the help of proverbs. The article mentions that there are many proverbs about bread in the Uzbek language, and that the Uzbeks, as well as other peoples, have valued bread as the most precious, the most sacred, the greatest, the most priceless blessing since ancient times. Special attention is paid to the linguistic and cultural features of non-joined proverbs.*

Keyword: Linguistic culture, concept, bread structure, parema, value.

Kishilar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro- madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Bu esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida, o'z yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbek milliy qadriyatlarida non, mehmondo'stlik va samimiylilik ramzi sifatida, oilaviy va ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. Non, O'zbek tarixida oziq-ovqat manbai bo'lish bilan birga, turli marosimlar va bayramlarda muhim rol o'ynaydi, an'anaviy qadriyatlarni saqlaydi. O'zbek madaniyatida non, maqollar va xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan ramz sifatida, hayotdagi muhim tushunchalarni ifodalaydi va qadriyatlarni namoyon etadi.

O'zbek xalqi asrlar davomida sayqal topib, rivojlanib, takomillashib, qadrlanib, e'zozlanib kelayotgan bebaho, betakror, bardavom qadriyatlarga ega. Bular sirasiga non bilan bog'liq qadriyatlar ham alohida o'rin tutadi. Tilimizda xalq hayoti bilan bog'liq, ya'ni butun bir xalqning madaniyati, milliyligi, orzu umidlari yoki tirikchilik manbai ekanligini belgilab beruvchi bir nechta konseptlar mavjud. Ular suv konsepti, taom konsepti, osh konsepti, non konsepti, tuz konsepti.

Konsept doimo shaxs bilan bog'liq. Konsept o'z ichiga so'zning leksik ma'nosiga xos ravishda intellektual, hissiy, estetik axborotni olishi, terminga xos ensiklopedik axborotni qamrab olishi mumkin. Ammo konsept na leksik ma'no va na tushuncha emas. Uning farqini quyidagi talqinda ko'rish mumkin. Konsept – bu alohida bir xalq, ijtimoiy sinf, alohida maktab yoki aynan bir individning borliqdagi predmet yoki hodisaga bo'lgan qarashlari asosida yuzaga kelgan mental hodisadir.²

Nonga bo'lgan hurmat, ehtirom hissi va uni e'zozlash bilan bog'liq o'zbekona milliy qadriyat hamda an'analarning ildizlari qadimiy davrlardan beri avloddan-avlodga, asrlardan-asrlarga o'tib kelmoqda. Bunday buyuk xislatlar qadimiy ma'naviy-ma'rifiy, madaniy merosimiz xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, afsona va rivoyatlar, matal va maqollar, diniy manbalar, yozma adabiyot namunalari asosida shakllangan. "Non to'liq bo'lsa, hayot to'liq" kabi an'anaviy ifodalar, nonning hayotiy ahamiyatini ta'kidlaydi va o'zbek xalqining qadriyatlarini aks ettiradi.

O'zbek tilida non konsepti eng qadimiy, eng ulug', eng noyob, eng tanqis, eng muqaddas ne'mat va u bilan bog'liq tushunchalar, qadriyatlar majmuini ifodalashi bilan alohidalik kasb etadi. Non konsepti zamirida o'zbek xalqiga xos mehmondo'stlik, mehnatkashlik, tantilik, o'ziga xoslik, soddalik kabi odamiylik xislatlari, o'zbekona urf-odatlar, an'analalar bilan bog'liq qadriyatlar sirasi jamlanganki, bu o'z navbatida, bir qator lingvomadaniy xususiyatlarga ham ega.

Yer, bug'doy va nonga bo'lgan yuksak hurmat hamda ehtirom Sharq xalqlarida hamon saqlanib qolgan. Nutqimizda faol qo'llanuvchi ona-Zamin, ona- Vatan tushunchalari hamda yerda yotgan bir burda nonni avaylab pokiza joyga olib qo'yish, ko'zga surtish kabi an'analalar buning yorqin dalilidir.

Non rizq-u ro'zimiz, bizni balo-qazolardan asraydigan, har qanday kunimizga yaraydigan eng arzon va eng buyuk ne'mat. Nonning madaniyatlararo munosabati shuni ko'rsatadiki, u

nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki xalqlarni bog'lovchi va ularning madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi ramziy unsurdir. Non har bir madaniyatda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning umumiy jihati – baraka, rizq va birlik ramzi sifatida qadrlanishidir. Shunday ekan, nonni muqaddas bilish, uni asrash azal-azaldan ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelayotgan odatdir.

Odatgina emas, qadimiy, merosiy, an'anaviy va bardavom qadriyatdir.

Maqol, matal va aforizmlar tilshunoslikda paremlar deb yuritiladi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikmalar maqol sanaladi.

Xalq maqollari ajdodlarimizning badiiy tafakkuri samarasi bo'lib, muayyan voqelikdan chiqargan hukm-xulosalarini ifoda etishda turli badiiy obrazlardan, usul va vositalardan foydalanganlar. Maqollar poetikasi masalasi muhim va murakkab bo'lib, bu janrning ixcham shaklga ega bo'lishi, biroq ijtimoiy-falsafiy mazmuni chuqur ekani bilan belgilanadi. Bu murakkablik ixcham shaklda chuqur mazmunni ifodalash bilan bog'liqdir.

Non uzvli maqollarni tavsiflash va tasniflash xalq dunyoqarashi va qadriyatlarini, milliy tilning milliy-mental xususiyatlarini o'rganishda muhimdir. Xalq paremlarida non leksemasining leksik-semantik munosabati asosan ramziy, amaliy va axloqiy-falsafiy tushunchalar bilan bog'liq. Non o'zbek tilidagi paremlarda nafaqat tirikchilikning asosiy manbasi sifatida, balki halollik, baraka, birlik, do'stlik va sadoqat kabi ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu paremlarda nonning leksik-semantik munosabatlarini quyidagi jihatlar asosida tahlil qilish mumkin:

1. Non – tirikchilikning asosi.

Non insonning asosiy oziq-ovqat manbalaridan biri bo'lib, hayot uchun zarur energiya va oziq moddalarni ta'minlaydi. Paremlarda non inson mehnatining natijasi sifatida tasvirlanadi, u insonning mashaqqatlari va tirikchilik jarayonini ifodalaydi. Bunday maqollar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: Non topish oson emas; Non bilan birga baraka kiradi; Rizq-ro'zni non bilan bil.

2. Non – mehmondo'stlik timsoli. O'zbek xalqining mehmondo'stligi va saxovatining ramzi non sanaladi. Mehmon kutish, hurmat va insoniy qadriyatlarni ifodalashda non muhim rol o'ynaydi. Non tuz haqqi paremlarda insonlar o'rtasidagi ishonch, do'stlik va hurmatni ifodalaydi. Nonni birga iste'mol qilish insonlar o'rtasida mustahkam aloqalarni anglatadi. Quyidagi maqollarda non mehmondo'stlik timsoli sanaladi: Non, tuz haqqi unutilmaydi; Non sindirgan bilan yomon bo'lma; Nonning haqqi – insonning o'z vijdoni.

3. Non – oila va jamiyatni birlashtiruvchi omil. Non nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki insonlarni birlashtiruvchi muhim qadriyat hamdir. O'zbek xalqida non hurmat qilinib, u oila barqarorligi va jamiyat birdamligini mustahkamlovchi ramz hisoblanadi. Har bir oila dasturxon

atrofida jam bo'lib, birga nonushta yoki kechki ovqatni iste'mol qilish orqali o'zaro mehr-oqibatni mustahkamlaydi. Bunday maqollarni juda ko'plab keltirish mumkin: Halol non halol mehnatning mevasi; Noning halol bo'lsa, hayoting to'g'ri bo'ladi; Harom non yegan oxir-oqibat qashshoqlanadi; Non bo'lgan joyda urush bo'lmaydi; Non xalqning boyligi.

“Avval – non, keyin – in'om”, “Boyning jon bergani bilinmas, kambag'alning – non bergani”, “Butun non – azobi jon, yarim non – huzuri jon”, “Yaxshi joningga o'rtoq, yomon – noningga”, “Yaxshi qiz erta turib soch tarar, yomon qiz erta turib non so'rar”, “Kambag'al non deydi, boy – qon”, “Mehnatli non – shakar, mehnatsiz non – zahar”, “Och o'lganning qo'ynidan to'q to'qoch qidirar”, “G'ayratliga – buyuk o'lja, g'ayratsizga kuyuk kulcha”, “Boyning ko'zi xonda – g'aribning ko'zi – nonda”. Non uzvli paremlar o'zbek xalqini milliy taomlari, yeguliklari va ularni tayyorlashda faol qo'llanadigan unsur hamda ular bilan bog'liq milliy, madaniy, etnik, ijtimoiy, axloqiy qarashlarini ifodalovchi lingvokulturologik birlikdir. O'zbek tilidagi non konseptini ifodalovchi paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi o'zbek tilining lisoniy va madaniy o'ziga xosligini tadrijiy takomilini va yashovchanligini o'rganishda muhim ahamiyatga molikdir.

Barcha xalq maqollari kabi bu non uzvli maqollarda ham mazmuniy quymalik, kenglik, purma'nolilik hamda badiiyat mujassam. Non leksemasi xalq paremlarida insonning asosiy qadriyatlari – halollik, hurmat, baraka va mehnatga bo'lgan ehtiromni ifodalaydi. Bu esa o'zbek xalqi madaniyatining namoyondasi sanaladi. Paremlar orqali xalq rizqining muhimligi, uni qadrlash va hurmat qilish lozimligini avlod-dan-avlodga o'rgatib keladi. Nonning xalq ijodidagi ramziy o'rni xalqning dunyoqarashi va turmush falsafasining ajralmas qismi hisoblanadi.

REFERENCES

1. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Gafur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 127b.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
3. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол.фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2002. – 136 б.
4. Sharipova, M. (2024). ABDUNAZAR POYONOVNING 70 YILLIK YUBILEYI DOIRASIDA “ABDUNAZAR POYONOVNING BAXSHICHILIK SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI” MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA (Ilmiy maqolalar to'plami): ABDUNAZAR POYONOVNING KUYLAGAN

- “ALPOMISH” VARIANTIDA MAROSIMLAR BADIY IFODASI. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).
5. Baxshilloyevna, S. M., & Firuzovna, R. S. (2024). KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI TALABALAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
 6. Sharipova, M., & Jabborova, D. (2024). COMMONALITIES IN THE RELATIONSHIPS OF FOLKLORE GENRES WITH LITERATURE. *Modern Science and Research*, 3(9), 170-177.
 7. Sharipova, M., & Rajabova, S. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF IMPROVING THE SPIRITUALITY OF STUDENTS THROUGH LIBRARY CULTURE. *Modern Science and Research*, 3(9), 148-155.
 8. Sharipova, M., & Saidova, S. (2024). THE SKILL OF CHARACTER DEVELOPMENT IN ABDULLA QAHHOR'S STORIES. *Modern Science and Research*, 3(9), 156-162.
 9. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
 10. Azimov, Y., To'xsanov, Q., Adizov, B., Sharipova, M., & Hojiyeva, N. (2024). Statistical analysis of thrift and ecological education concepts in elementary school students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 02020). EDP Sciences.
 11. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
 12. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
 13. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
 14. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK-BAIY XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
 15. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONI BADIY STRUKTURASIDA MAROSIMLARNING O'RNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).

16. Sharipova, M. (2020). Вестник магистратуры. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*,1(1).
17. Sharipova, M. B., & Inoyatova, F. I. (2018). USE OF PROBLEM-BASED LEARNING IN THE CLASSROOM. *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА*, (11), 69.
18. Sharipova, M. B., & qizi Shokirova, N. Z. «ALPOMISH» DOSTONI–BADIY BARKAMOL ASAR.
19. Sharipova, M. B., & qizi Salimova, K. R. “ALPOMISH” DOSTONIDA “KAMPIR O’LDI” MAROSIMI TASVIRI.
20. Sharipova, M. B. Ritual and Epic Relations in the Epic" Alpomish". *MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN*.